

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA INTENSIV
BOG‘LARDA AGROTEKNIK TADBIRLARNI TOG‘RI BAJARISH BILAN
HOSILDORLIKNI OSHIRISH**

Usenbaev Almas Marsetbay Uli

Akademik Mahmud Mirzaev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot institutining Qoraqalpoq ilmiy tajriba stansiyasi, Seleksiya va urug‘chilik laboratoriya bo‘limi mudiri

usenbaevalmas1995@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0004-8897-6928>

Annotatsiya: *Mazkur maqolamda Qoraqalpoq‘iston Respublikasi sharoitida intensiv bog‘dorchilikni tashkil etish va rivojlantirishning ahamiyati yoritilgan. Hududning tuproq-iqlim sharoiti, suv resurslaridan oqilona foydalanish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hamda intensiv mevali daraxtlarni parvarishlashning samarali usullari haqida umumiy ma‘lumot berilgan. Intensiv bog‘lar tashkil etish orqali yerlardan unumli poydalanish, hosildorlikni ko‘paytirish, eksportbop mahsulot yetishtirish va yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatlari tahlil qilingan. Mening shaxsiy fikrimcha, intensiv bog‘dorchilik tizimi Qoraqalpoq‘iston sharoitida qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va hududning agrar salohiyatini yanada mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *Intensiv bog‘dorchilik, agrotexnologiya, tomchilatib sug‘orish, hosildorlik, mevali daraxtlar, eksport salohiyati, yer unumdorligi, qishloq xo‘jaligi.*

Kirish

So‘nggi o‘tgan yillarda Qoraqalpoq‘iston Respublikasida qishloq xo‘jaligi sohasida tub o‘zgarishlar amalga oshirilib, ayniqsa intensiv bog‘dorchilikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Qoraqalpoq ilmiy tajriba stansiyasi hududida 2013-yilda 2 gektar maydonda tashkil etilgan intensiv olma bog‘i buning yaqqol misolidir. Avvallari atigi 12 sentner hosil beradigan mahaliy baglar bo‘lgan hududda zamonaviy loyiha asosida barpo etilgan olma va boshqa mevali daraxt plantatsiyalari bugungi kunda yuqori samaradorlikka erishib, o‘zining iqtisodiy va amaliy natijalarini ko‘rsatmoqda. Bog‘ning asosiy qismi — 50 foizi olma ekiniga ajratilgani, qolgan maydonlarda esa olxo‘ri, shaftoli, gilos, parvarishlanayotgani hudud iqlim sharoitini to‘g‘ri hisobga olgan holda rejalashtirilganini ko‘rsatadi. Tomchilatib sug‘orish tizimining joriy etilishi, o‘g‘itlarni suv orqali yetkazish (ferigatsiya), agrotexnik tadbirlar hosildorlikni oshirish va suv resurslaridan samarali

foydalanishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ko‘chatlarni mahalliy sharoitda payvandlash orqali ko‘paytirish va kelgusida kengaytirish rejalari hududda barqaror bog‘dorchilik tizimini shakllantirishga zamin yaratmoqda.

Mening shaxsiy mulohazam shuki, intensiv bog‘dorchilik oddiy an’anaviy dehqonchilikdan tubdan farq qiladi va u chuqur bilim, aniq hisob-kitob hamda zamonaviy texnologiyalarni talab etadi. Shaxsiy tajribamdan kelib chiqib, o‘tkazgan amaliy tajribalarimizda ham ko‘chatlarning moslashuvchanligi, suv me‘yorining to‘g‘ri belgilanishi va o‘g‘itlash ishlarining ilmiy asosda olib borilishi hosildorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatishini kuzatganman. Agrotexnik tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi intensiv bog‘larning muvaffaqiyatli rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Tadqiqotlar metodologiyasi

Mazkur tadqiqotim Qoraqalpog‘iston Respublikasi kegayli tumaninig Qoraqalpoq ilmiy tajirba hududida 2013-yilda barpo etilgan 2 gektarlik intensiv bog‘ faoliyatini o‘rganish asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida kuzatish, tahlil qilish, taqqoslash, statistik ma’lumotlarni umumlashtirish hamda amaliy natijalarni baholash usullaridan foydalanildi. Metodologik yondashuv sifatida, avvalo, intensiv bog‘ tashkil etilishidan oldingi holat — ya’ni 12 sentner hosil beradigan mahalliy bag maydonining agroiqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan intensiv bog‘ barpo etilgandan keyingi samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘zaro solishtirildi. Shuningdek, bog‘da joriy etilgan tomchilatib sug‘orish tizimi, o‘g‘itlarni suv orqali berish (ferigatsiya), tabiiy himoya o‘simlirlarini o‘sirish kabi agrotexnik tadbirlarning hosildorlik va suv tejamkorligiga ta’siri amaliy ma’lumotlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot davomida ko‘chatlarni mahalliy sharoitda payvandlash orqali ko‘paytirish, ularni iqlimga moslashtirish jarayonlari ham o‘rganildi. 0,30 gektar maydonda 30 ming tupdan ortiq ko‘chat yetishtirish va kelgusida 100 ming tup ko‘chat tayyorlash rejalari asosida ishlab chiqilgan tizimning ilmiy-amaliy ahamiyati baholandi. Darhaqiqat, intensiv bog‘dorchilikni rivojlantirishda ilmiy asoslangan yondashuv muhim o‘rin tutadi. Mening shaxsiy mulohazam shuki, agrotexnik tadbirlarni faqat amaliy tajribaga emas, balki aniq hisob-kitob va ilmiy ososlarga tayangan holda olib borish yuqori natija beradi. Shaxsiy tajribamga tayanib, intensiv plantatsiyalarda bag‘ qator oralarini kuzda va erta bahorda shudigar qilish, suv me‘yorini to‘g‘ri belgilash, to‘g‘ri shakil berish va o‘g‘itlash tizimini optimallashtirish va tajribali mutaqaqasislarni jalib qilish hosildorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatishini kuzatganman. Shu bois tadqiqotda resurs tejamkor texnologiyalar samaradorligini aniqlashga alohida e’tibor qaratildi. Metodologik yondashuvlarimdan kelib chiqib, mazkur ishda tizimli tahlil, kompleks baholash hamda innovatsion agrotexnologiyalarni amaliy natijalar bilan bog‘liq holda o‘rganish usuli qo‘llanildi. Bu esa intensiv bog‘dorchilikning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaradorligini har tomonlama yoritish imkonini berdi.

Adabiyotlar sharhi

Intensiv bog‘dorchilikni tashkil etish va rivojlantirish masalalari qishloq xo‘jaligi ilmiy adabiyotlarida keng yoritilgan. Mevali daraxtlarni zich ekish, past bo‘yli payvandtaglardan foydalanish, kuzda va erta bahorda shudigar qilish, suv me‘yorini to‘g‘ri belgilash, to‘g‘ri shakil berish va o‘g‘itlash tomchilatib sug‘orish hamda ferigatsiya tizimlarini joriy etish yuqori hosildorlikka erishishning asosiy omillari sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Men o‘qigan adabiyotlardan ma‘lum bo‘lishicha, intensiv bog‘lar samaradorligi ko‘p jihatdan agrotexnik tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishiga bog‘liq. Xususan, daraxtlarni shakllantirish, me‘yoriy sug‘orish, o‘g‘itlash tizimini optimallashtirish va zararkunandalarga qarshi kompleks kurash choralari qo‘llash hosildorlikni sezilarli darajada oshiradi. Qoraqalpoq ilmiy tajriba tashkil etilgan 2 gektarlik intensiv bog‘ tajribasi ham aynan shu ilmiy qarashlarning amaliy tasdig‘i sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ilgari past hosilli mahaliy bag‘lar maydoni bo‘lgan hududda intensiv olma plantatsiyasining barpo etilishi va qisqa muddatda yuqori natijalarga erishilishi ilmiy asoslangan yondashuv samaradorligini ko‘rsatadi.

Chet el adabiyotlari orasida tahlillar olib borganimda, Italiya, Ispaniya va Turkiya kabi davlatlarda intensiv olma va boshqa mevali daraxt plantatsiyalarida Ufa usuli (yonboshlatib ekish), himoya to‘rlari bilan yopish, mexanizatsiyalashgan yig‘im-terim tizimlari keng qo‘llanilishi qayd etilgan. Ushbu yondashuvlar hosilni tez va sifatli yig‘ib olish, daraxt umrini uzaytirish hamda eksportbop mahsulot yetishtirishga xizmat qiladi. Qoraqalpoq ilmiy tajriba stansiya hududida ham ko‘chatlarni yonboshlatib ekish usulining joriy etilishi xorij tajribasini mahalliy sharoitga moslashtirish natijasi ekanini ko‘rsatadi.²³² Shuningdek, zamonaviy adabiyotlarda suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasi alohida ta‘kidlanadi. Tomchilatib sug‘orish texnologiyasi oddiy sug‘orish usuliga nisbatan suv sarfini bir necha barobar kamaytirishi va o‘g‘itni bevosita ildiz zonasiga yetkazib berish orqali samaradorlikni oshirishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Qoraqalpoq ilmiy tajriba stansiyasidagi intensiv bog‘ida 1ta nasos stansiyasi orqali boshqariladigan tomchilatib sug‘orish tizimining joriy etilishi ana shu ilmiy tavsiyalarga mos keladi. Mening shaxsiy mulohazam shuki, adabiyotlarda bayon etilgan nazariy qarashlar va ilg‘or xorij tajribasi mahalliy sharoit bilan uyg‘unlashtirilgandagina yuqori natija beradi. Men o‘rganib chiqqan manbalar hamda amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, intensiv bog‘dorchilikni

²³² O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish bo‘yicha hisobot. Tashkent, 2020.

rivojlantirishda ilmiy asoslangan, tizimli va innovatsion yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida bog‘ va tokzorlardan yuqori hosil olish ko‘plab agrotexnik tadbirlarning o‘z vaqtida va tajribali mutaqsislar tamonidan tizimli bajarilishiga bog‘liq. Men o‘tkazgan amaliy tajribalardan kelib chiqib aytish mumkinki, daraxtlarni tog‘ri shakllantirish, me‘yoriy sug‘orish, o‘g‘itlash va zararkunandalarga qarshi kurash choralarini samarali amalga oshirish hosildorlikni sezilarli darajada oshiradi. Darhaqiqat, amaliy tajribalar shuni ko‘rsatkiy, bag‘ qator oralig‘inga ishlov berish o‘z vaqtida va tog‘ri shakil berish sug‘arish va organik hamda mineral o‘g‘itlardan oqilona foydalanish eng ososiysi, „bag‘darchilik saxosiga tajribali mutaqsislarni jalb qilish, mevali daraxtlar va uzumzorlarning hosilini sifatini yaxshilashda va hosildorlikni 20-30% ga oshirish imkonini beradi. Men o‘tkazgan tahlillar natijasida, intensiv bog‘larda yuqori hosilga erishish bir qator shartlarga bog‘liq ekanini aniqladim: bu – tuproqning mineral tarkibini tekshirish shunga qarab organik va mineral og‘itlar bilan oziqlantirish, sug‘orish suvni me‘yorida taqsimlash, shuningdek kasallik va zararkunandalarga qarshi tizimli kurashni o‘z vaqtida olib borishdir. Shu bilan birga, mening shaxsiy tajribamga tayanib aytish mumkinki, samarali agrotexnika usullarini qo‘llash nafaqat hosilni oshiradi, balki meva sifatini yaxshilaydi va ularni uzoq muddat saqlash imkonini yaratadi.²³³

1-Jadval: Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida bog‘ va tokzorlarda oyma-oy olib bariladigan agrotexnik shora tadbirlar.

²³³ Jahon banki va O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. 500 million dollarlik qishloq xo‘jaligi loyihasi investitsiya dasturi. Tashkent, 2021.

Oy/ Davr	Bog‘lar bo‘yicha agrotexnik tadbirlar	Tokzorlar bo‘yicha agrotexnik tadbirlar	Maqsad / Natija
Yanvar	- Uruqli meva daraxtlaridan nobud bo‘lgan shoxlarni kesish- G‘o‘ng va mineral o‘g‘itlarni tayyorlash	- Ariq zovarlarni va kollektorlarni tozalash- Tuproqni organic ug‘itlar bilan boyitish	- Daraxt va toklarning bahorgi rivojlanishiga tayyorlash- Tuproq unumdorligini oshirish
Fevral	- Bag‘ qator oralarini begona otlardan tozalash va daraxt tanasida qurib qalgan mevalari terib yigib olish	- dalani begona otlardan tozalash, simlarni tortish- tuproqni organic ug‘itlar bilan boyitish	- Daraxt va toklarning fiziologik rivojlanishini yaxshilash- Hosil sifatini oshirish
Mart	- shakllantirish ishlarini amalga oshirish va fosforli va kaliyli og‘itlarini solish Zararkunandalarga qarshi kimyoviy ishlov berish	- Tokzorlarni bahorgi ustiga ko‘milgan tuproqlardan tazalsh	- Bahorda yangi o‘shish va gullash uchun sharoit yaratish
Aprel – May	- Sug‘orish va azotli mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirish - Shox-shabbalarni tekislash	- Toklarda sug‘orish, zarur hollarda shoxlarni qisqartirish	- O‘shish davrida hosilni oshirish va meva sifatini yaxshilash
Iyun – Iyul	Sug‘orish begano otlardan tozalash va Zararkunandalarga qarshi kurash	- Toklarda sug‘orish va mineral ug‘itlar solish	- Meva va uzumning rivojlanishini maksimal darajada ta‘minlash
Avgust – Sentyabr	- Hosilni yig‘ib olish ishki bozarlarga satishga tayyorlash	- Hosilni yig‘ish, shoxlarni tozalash	- Hosil sifatini va saqlanish muddatini oshirish
Oktabr – Noyabr	- Hosilni yigib terib olib bolgash, bag‘ qator oralarini shudigarlash	- Toklarni kuzgi komishga tayorlash	- Qish davrida tuproqlarga ug‘itlar solish, hosilni uzoq muddat saqlashga toyarlash
Dekabr	- Erlarni shudigar qilish va tekislash bostirib sug‘arishga tayyorlash	- Suv keladigon ariq va zavorlarni tozalash erlarni va tekislash	- Kelasi yil uchun tayyorgarlik, hosilni yuqori darajada olish sharoitini yaratish

Olingan natijalarni tahlil qilganda, hosil hajmi va sifati o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Masalan, o‘rganilgan bog‘larda organik va mineral o‘g‘itlarni birlashtirib qo‘llash natijasida mevalarning o‘rtacha og‘irligi va rang-barangligi yaxshilandi, uzumzorlarda esa meyorda sug‘orish va og‘itlash shox-shabbalarni to‘g‘ri xomtak qilish

hosildarlikni sezilarli darajada oshirdi. Shu asosda, men shaxsiy tahlillarimdan kelib chiqib, Qoraqalpog‘iston respublikasi sharoitida bog‘ va tokzorlarni rivojlantirishda ilg‘or agrotexnik tavsiyalarni doimiy joriy etish zarurligini ta‘kidlayman.

Xulosa qilib aytganda, o‘tkazilgan tadqiqotlar, men yuborgan ma‘lumotlar va shaxsiy tahlillarim natijasida shuni aniqlash mumkinki, yuqori hosilga erishishda ilmiy xodimlarning ilmiy asoslangan, o‘z vaqtida va tog‘ri bajarilga agrotexnik shora tadbirlar, tizimli va innovatsion yondashuvlar hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi farmoni. Qishloq xo‘jaligini 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasi. Tashkent, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish bo‘yicha hisobot. Tashkent, 2020.
3. Jahon banki va O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. 500 million dollarlik qishloq xo‘jaligi loyihasi investitsiya dasturi. Tashkent, 2021.
4. Shavkat Mirziyoyev. Davlat yig‘ilishidagi nutqlar: qishloq xo‘jaligi va meva-sabzavotchilik sohalarini rivojlantirish bo‘yicha topshiriqlar. Tashkent, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi. Suv xo‘jaligini rivojlantirish konsepsiyasi (2020–2030). Tashkent, 2020.
6. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi. Akademik Mahmud Mirzaev nomli Bog‘ dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti tavsiyalari. Tashkent, 2016.
7. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi. Meva-sabzavotchilik va uzumchilikni rivojlantirish bo‘yicha kooperativ va klaster loyihalari. Tashkent, 2021.
8. Suhaylov B.A., Xoliqov B.M., Saimnazarov Yu.B., Fayziev J.N., Abdullaev R.M., Akramov U.I. Bog‘ va tokzorlarni parvarishlash bo‘yicha agrotehnika tavsiyalari. Tashkent, 2016.
9. Fakhuritdinov N.Z. – Toshkent davlat agrar universiteti. Meva va uzumchilik kafedrasi docenti tavsiyalari. Tashkent, 2016.
10. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. “Daladan iste‘molchigacha” tizimi va eksportbop mahsulot yetishtirish yo‘nalishidagi strategiyalar. Tashkent, 2021.